




Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 23-iyul, № 149 (9044)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



MAMLAKATIMIZ GAVHARI BO'LGAN JIZZAX YANGI O'ZBEKISTONNING SANOAT MARKAZLARIDAN BIRIGA AYLANMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-iyul kuni Jizzax viloyatiga tashrif buyurib, sanoat va ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa obyektlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab “Zomin texnopark”i maxsus sanoat zonasini borib ko'rdi.

Mamlakatimizning barcha hududida iqtisodiyot uchun g'oyat zarur bo'lgan korxonalar barpo etilmoqda. Bu yangi ish o'rinlari yaratilishi, sanoat tarmoqlari rivojlanishi, pirovardida, xalqimiz farovonligi oshishiga xizmat qilyapti. Jizzax viloyatida ham keyingi yillarda qayta ishlash sanoati hajmi sezilarli darajada oshdi.

“Zomin texnopark”i qurilishini o'tgan yili 27-iyunda davlatimiz rahbari boshlab bergan edi. 400 gektarda barpo etilayotgan texnoparkda xitoylik investorlar bilan birgalikda 1 milliard 200 million dollarlik 31 ta loyiha amalga oshiriladi.

O'tgan davrda zarur infratuzilma va inshootlar barpo etildi. Yaqinda ilk korxona – “Xinjiang Honglin Tiandi” kompaniyasi tomonidan qiymati 10 million dollarlik beton mahsulotlari tayyorlash loyihasi ishga tushirildi. 60 kishining bandligi ta'minlandi.

Ayni kunlarda 42 million dollarlik ikkinchi loyiha bo'yicha ishlar yakuniy bosqichda. Unda “Midea” brendi ostida yiliga 300 ming dona maishiy elektr texnikasi ishlab chiqariladi. 150 ta ish o'ri yaratiladi.

Davlatimiz rahbariga shu va navbatdagi loyihalar haqida axborot berildi.

Birinchi bosqichda maxsus sanoat zonasiga 9 ta loyiha joylashtirilgan. Bugungi kunda qariyb 300 million dollarlik yana 7 ta loyiha bo'yicha

qurilish ishlari davom etmoqda. Ularda qurilish materiallari, konstruksiyalar, elektr texnikasi va kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi, logistika va trening markazi tashkil etiladi.

Umuman, sanoat zonasidagi barcha loyiha natijasida qariyb 5 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi, 15 turdagi yangi mahsulot o'zlashtirilib, 70 million dollarlik eksport salohiyati yaratiladi. Eng muhimi, 5 mingdan ortiq fuqarolar ishli bo'ladi.

Prezident investorlarga ko'maklashib, loyihalarni tezlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Sanoat sohalarga mos mutaxassislar tayyorlash, yoshlar bandligini ta'minlash muhimligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari “Zomin texnopark”da rejalashtirilgan yangi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Yuqorida qayd etilganidek, birinchi bosqichda 9 loyiha bo'yicha ishlar boshlangan. Endi ikkinchi bosqich doirasida yana 5 ta loyiha shakllantirilgan.

Jumladan, “Longze Investment Group” kompaniyasi bilan hamkorlikda xavfsizlik va tibbiyot texnikalari, “Foxit” kompaniyasi bilan noutbuk, planshet, server, router kabi zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lg'a qo'yish mo'ljallanmoqda. Shuningdek, charm va sport poyabzallari, qurilish materiallari, chinni idishlar, kimyo mahsulotlari bo'yicha loyihalar ko'zda tutilgan.

Ularning umumiy qiymati 250 million dollar atrofida bo'lib, yuqori qiymatli tovarlar ishlab chiqariladi. Tayyor

mahsulotlarning qariyb 70 foizi tashqi bozorga yo'naltiriladi.

Jizzax viloyatida xorijiy investitsiyalar miqdori yil sayin o'sib bormoqda. 2018-yilda viloyatda bor-yo'g'i 18 million dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan bo'lsa, o'tgan yili bu raqam 1 milliard dollardan oshgan. Oxirgi sakkiz yilda viloyatga 3,7 milliard dollar investitsiya kiritilgan, 4 mingdan ziyod sanoat korxonalari ishga tushgan. Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 260 tadan oshgan.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Zomin tumanida qurilayotgan maishiy texnika zavodini ko'zdan kechirdi.

Ushbu yo'nalish bo'yicha yurtimizda katta salohiyat mavjud. Davlatimiz rahbari bu sur'atni davom ettirib, milliy brendlar ostida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, O'zbekistonni mintaqaviy “elektrotexnika xabi”ga aylantirish vazifasini qo'ygan. Zomindagi zavod buning bir qismi bo'ladi.

“Navoiy” maxsus sanoat parkining filiali sifatida tashkil etilgan majmua 80 gektar maydonda joylashgan. Loyihaning umumiy qiymati 150 million dollar. Bu yerda kir yuvish mashinasi, sovitch, televizor, elektr suv isitkich kabi yiliga 1 million dona maishiy texnika hamda butlovchi qismlar ishlab chiqariladi. 100 turdagi mahsulotlar natijasida mahalliyashtirish darajasi 70 foizga yetadi.

Muhimi, yillik ishlab chiqarish hajmi 320 million dollarni tashkil etadi. Shundan 140 million dollarlik mahsulot

eksportga yo'naltiriladi. 7 mingdan ziyod aholi ish bilan ta'minlanadi.

Sanoat parkida tayyorlangan mahsulotlar Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston singari 15 dan ortiq mamlakatlarga eksport qilinadi.

Hozirgi o'zgaruvchan bozor talablariga tez moslashish uchun zavodning o'zida qolipxona ham tashkil etiladi. Zamonaviy logistika markazi orqali mahsulotlar xaridorga izchil yetkazib beriladi.

Bundan tashqari, sanoat parkida “Avtosanoat” AJ tarkibidagi korxonalar uchun plastmassa mahsulotlari tayyorlash ham rejalashtirilgan.

Mamlakatimizning barcha hududida imkoniyatlarni to'la ishga solish choralari ko'rilmogda. O'tgan yil 31-dekabrda Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha Prezident qarori qabul qilinib, zarur masalalar hal qilib berilgan edi. Xususan, unda 2025-yilda 2 milliard dollar investitsiya jalb etish, eksportni 285 million dollarga yetkazish, 168 ming kishini ishli qilish chora-tadbirlari belgilangandi.

Bu vazifalar birin-ketin bajarilmoqda. O'tgan olti oyda Jizzaxda sanoat, servis va qishloq xo'jaligida 200 ta loyiha ishga tushdi. Viloyatga 662 million dollar investitsiya kirib keldi.

Natijadorlikni yanada oshirish maqsadida Jizzax viloyatining Zomin tumanida ham “Islohotlar shtabi” tuzilgan.

Davlatimiz rahbari tashrifi davomida viloyatda amalga oshirilishi rejalashtirilgan yangi loyihalar taqdimoti

bilan ham tanishdi.

Xususan, “yagona darcha” tamoyili asosida qishloq xo'jaligi xizmatlarini bitta joyga jamlagan “Agromarkaz” tashkil etildi. Hosildorlikni oshirishga qaratilgan yangicha yondashuvlar viloyatda oziq-ovqat mahsulotlari sifatiga ijobiy ta'sir qilib, aholining ko'proq daromad topishiga imkon yaratmoqda.

Jizzax viloyati kartoshkachilikni rivojlantirishga zamin qilib olinmoqda. Bugungi kunda Zomin ilmiy tajriba stansiyasida xorijiy va mahalliy seleksiyaga mansub 12 ta nav birlamchi urug'chiligi yo'lg'a qo'yildi.

Odatda urug'lik kartoshka yetishtirish 6-7 yilni va 8 ta bosqichni talab qilsa, yangi taklifga ko'ra jarayon 4 bosqichga kamaytirilib, 2 yilda tayyorlanadi. Bunda kartoshkaning yangi seleksiya navlaridan 12 tonna yuqori avlod super elita urug'lik aholi xonadonlariga bepul tarqatiladi. Natijada 120 tonna elita kartoshka urug'ligi yetishtiriladi. Loyiha doirasida Zomin va Baxmal tumanlari urug'lik kartoshka yetishtirishga ixtisoslashtiriladi.

Shuningdek, dukkakli ekinlar ekish, Zarbdor tumanidagi kanalda nasos stansiyalari va magistral quvurlar qurish rejalari belgilangan.

Jizzaxning turfa tabiati, tog'li va cho'l hududlari yilning to'rt faslida ham sayohat qilish imkonini beradi. “Zomin” turistik-rekreatsion zonasini, Zomin aeroporti va yangi yo'llar bu imkoniyatlarni yanada kengaytirdi. Yirik 6 ta kanal bo'yida sayilgohlar tashkil qilindi. Endi “Aydar-Arnasoy” ko'llar tizimi qirg'oq bo'yida ham zamonaviy

turizm markazi barpo etiladi.

– Tumanlarga sanoatni olib kirib, odamlarni ishli qilishga harakat qilyapmiz. Ilgari dasht bo'lgan joylarda zamonaviy korxonalar paydo bo'lyapti. Odamlarimiz hunaridan, tomorqasidan ham daromad topyapti. Lekin bu bugungi natija. Yangi avlod yetishib kelyapti, yoshlarimizning bilimi, talabi oshib boryapti. Ularning ishlashi, yaxshi yashashi uchun hozirdan zamin yaratishimiz kerak. Agar imkoniyatlardan to'g'ri foydalanilsa, Zomin tumani ishsizlikdan xoli hudud bo'la oladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ma'lumki, Ko'kdala tumanining yangi markazida san'at saroyi, san'at maktabi, umumta'lim maktabi va sport majmuasi yonma-yon barpo etilmoqda. Davlatimiz rahbari bu bolalarga qulay bo'lishini ta'kidlab, kelgusi loyihalarda shu usulni qo'llash zarurligini aytgan edi. Endi shu tajriba asosida Zomin tumanida ham madaniyat saroyi va san'at maktabi qurilishi rejalashtirilgan. Madaniyat saroyi 300 o'rinni bo'lib, tuman markazidagi 45 mingdan ortiq aholiga xizmat ko'rsatadi. Bu yerda “Zomin sayqali” folklor-etnografik jamoasi, 13 ta to'garak faoliyat yuritadi.

Shu bilan Prezidentimizning Jizzax viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Abdullajol QAYUMOV,
O'ZA muxbirlari.

Senat Kengashida

DAVLAT ULUSHINI QISQARTIRISH EVAZIGA XUSUSIY SEKTORNI RIVOJLANTIRISH – DAVR TALABI

Kuni kecha Oliy Majlis Senati Kengashining majlisi bo'lib o'tdi. Uni Senat Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Majlisda parlament nazorati doirasida iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish hamda xususiyashtirish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosi muhokama qilindi.



ayrim bo'sh turgan bino hamda inshootlar ommaviy savdolarga chiqarilmagan. O'ndan ziyod davlat aktivlari qariyb bir yildan buyon auksionda sotilmasa-da, ularning boshlang'ich narxini pasaytirish mexanizmidan foydalanilmagan.

Hududning ixtisoslashuvi, kommunikatsiya o'tkazish imkoniyati o'rganilmagan tadbirkorlik faoliyati uchun auksionga chiqarilgan 1,9 ming gektarga yaqin yer maydonlari qariyb bir yildan buyon sotilmasdan qolmoqda.

Ijtimoiy daftarlarga kiritilgan ishsiz aholining bandligini ta'minlagan tadbirkorlik subyektlariga davlat mulkidadagi bino va inshootlarni ijaraga berish bo'yicha joriy etilgan imtiyozlardan deyarli foydalanilmagan.

2024-yilda ayrim viloyatlarda davlat ko'chmas mulk obyektlarini sotishdan tushgan mablag'lar to'liq viloyat byudjetiga o'tkazilib, obyekt joylashgan tuman (shahar) byudjetiga ajratmalar amalga oshirilmagan.

Senatlar tomonidan xususiyashtiriladigan va ijaraga beriladigan davlat mulki, uni sotib olish bo'yicha yaratilgan imkoniyatlar va imtiyozlar haqida aholi hamda tadbirkorlarni keng xabardor etish, targ'ibot va tashviqot ishlari olib borish masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmayotgani tanqid qilindi. Bu borada hokim yordamchilarining mas'uliyatini oshirish ham muhimligi qayd etildi.

Kengash majlisida xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va davlat mulkini xususiyashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar bajarilishini monitoring qilish, munitsipal mulkni xususiyashtirish holati to'g'risida mas'ul idoralarning hisobotlarini sessiyalarda eshitish va tegishli choralarda belgilash yuzasidan tavsiyalar berildi.

“Xalq so'zi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

HAYOTIMIZGA DAXLDOR MASALALARNING HUQUQIY ASOSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Spiker N. Ismoilov o'tgan haftada mamlakatimiz hayotidagi muhim voqealarga to'xtaldi. Xususan, davlatimiz rahbarining 14-iyul kuni qabul qilingan “Islohotlarni amalga oshirishda istiqbolli tashabbuslarni yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni aholining ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

Hujjatda bir nechta muhim strategik yo'nalishlar belgilangan, xususan, xalqchil islohotlar jarayonida yetuk mutaxassislar, yoshlar, tadbirkorlar va faol fuqarolar ishtirokini ta'minlash, texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini integratsiya qilish, istiqbolli tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy, ilg'or g'oyalarni hayotga tatbiq etish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgani aytiladi.

Yana bir muhim hujjat – “Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi majlisi doirasida erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi



Prezident qarori O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratish, umuman, investorlar ishonchini mustahkamlashga qaratilgan tizimli ishlarni jadallashtirishda muhim o'rin tutishi aytiladi.

Mazkur Farmon va qaror ijrosi samarali amalga oshirilishida deputatlar, siyosiy partiyalar fraksiyalari, qo'mitalar faol ishtirok etishi, unda belgilangan vazifalarning tegishli vazirlik va idoralardan bajarilishi yuzasidan parlament nazoratini ta'minlash zarurligiga urg'u berildi.



488,5 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi

Mamlakatimizda 2025-yilning birinchi yarmida **488,5 trln.** so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 2024-yilning shu davridagiga nisbatan **6,6 foiz** o'sishga erishildi.



FAKT VA RAQAMLAR

Bu oxirgi besh yillikdagi eng yuqori ko'rsatkichdir. E'tibor qiling, 2021-yilning birinchi yarmida kishi boshiga **5 763,8** ming so'mlik sanoat mahsulotlari to'g'ri kelgan.

Milliy statistika qo'mitasidan ma'lum qilishlaricha, joriy yilning 1-iyul holatiga ko'ra respublikada faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni **59,0 mingga** yetkazilgani, ular tomonidan ishlab chiqarish hajmini muttasil oshirish chora-tadbirlari ko'riyotgani tufayli ana shunday barqaror o'sish sur'atlari ta'minlandi. Natijada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ulushi **12 957,9** ming so'mni, o'sish sur'ati **4,5** foizni tashkil etdi.

Bu borada ayrim hududlarda respublika ko'rsatkichidan yuqori natija qayd etilgani, xususan, Jizzax viloyatida **9,9 foiz**, Navoiy viloyatida **7,5 foiz**, Xorazm viloyatida **7,3 foizga** yetgani, ayniqsa, quvonarlidir.



HAYOTIMIZGA DAXLDOR MASALALARNING HUQUQIY ASOSI



➡ Majlisda deputatlar tomonidan rasmiy statistika sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, soddalashtirilgan tartibda ijro etiladigan ishlar toifasini kengaytirishga qaratilgan qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Parlamentdagi muxolifat fraksiya e'tirozi asosida qo'mitaga qaytarilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi

Qonunchilik palatasining o'tgan yalpi majlisida parlamentdagi muxolifat – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasining qonun tashabbuskorlariga bildirgan e'tirozidan so'ng rasmiy statistika sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi qayta ishlash va maromiga yetkazish sharti bilan mas'ul qo'mitaga qaytarilgan edi.

Muxolifat fraksiyasi tomonidan rasmiy statistika sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishini, tasdiqlanishini va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha vakolatli organning belgilanmaganligi, rasmiy statistikani tayyorlovchilar to'g'risidagi moddaga davlat organlari hamda xo'jalik birlashmalarini statistika dasturlariga rasmiy statistikani tayyorlovchi sifatida kiritish Milliy statistika qo'mitasi tomonidan belgilangan mezonlar asosida bajarilishi masalasining huquqiy jihatdan asoslantirilmaganligi qayd etilgan edi.

Mas'ul qo'mita qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash davomida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning huquqiy asosini takomillashtirishda rasmiy statistikaning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratib, deputatlar tomonidan bildirilgan e'tiroz, taklif va tavsiyalarni inobatga olgan holda qonun loyihasini qayta ishlash chiqdi.

Shuningdek, qonun loyihasiga asos bo'lgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar qayta xatlovdan o'tkazildi. Aniqlangan amaldagi qator qonunlarga tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

Konstitutsiyaning 115-moddasidan kelib chiqib, ya'ni "Vazirlar Mahkamasi samarali iqtisodiy, ijtimoiy, soliq va byudjet siyosati amalga oshirilishi, ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga doir dasturlarning ishlab chiqilishi hamda bajarilishi uchun javobgar" etib belgilanganligi sababli qonun loyihasida amaldagi tahrir tiklandi.

Qonun loyihasida aks etgan Milliy statistika qo'mitasining belgilangan mezonlar asosida davlat organlari hamda xo'jalik birlashmalarini statistika dasturlariga rasmiy statistikani tayyorlovchi sifatida kiritishni nazarda tutuvchi qo'shimcha vakolatlari aniqlashtirildi.

Deputatlar tomonidan qonun loyihasi milliy va xorijiy foydalanuvchilar uchun rasmiy statistika ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda rasmiy statistikadan foydalanuvchilar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Majlisda rasmiy statistika sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi va qabul qilindi.

Mahallalarda huquq-tartibot maskanlari bosh va kichik inspektorlariga vakolat berilyapti, ularning mas'uliyati oshirilyapti

Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi hamda jamoat tartibini saqlash sohasiga oid qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Kriminogen vaziyat og'ir mahallalarda holatni barqarorlashtirish hamda jinoyatlarni barvaqt profilaktika qilish maqsadida mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati takomillashtirilib, profilaktika bosh va kichik inspektori lavozimlari joriy etilgan. Biroq ichki ishlar organlari tizimidagi ishlarni ko'rish va choralarni qo'llash vakolati faqat mahalladagi profilaktika inspektorlariga berilgan bo'lib, bunday vakolat huquq-



tartibot maskanlaridagi bosh va kichik inspektorlarda mavjud emas.

Bundan tashqari, hozirda ichki ishlar organlarining patrul-post xizmati inspektorlariga aniqlangan ayrim huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirish vakolati berilgan bo'lsa-da, ushbu ma'muriy bayonnomalar yuzasidan choralarni qo'llash vakolati tizimdagi boshqa mansabdor shaxslarga, masalan, ish yuklamasi katta bo'lgan tuman (shahar) ichki ishlar bo'limi boshliqlari va o'rinnbosarlari, transportda xavfsizlikni ta'minlash bo'linmalari boshliqlari yoki profilaktika inspektorlariga yuklatilgan.

Yuqoridagi holatlar ma'lum ish bo'yicha qaror qabul qilish

jarayonlarining kechikishiga, bu esa fuqarolarning sarson bo'lishiga olib kelmoqda. Shu sababli, mazkur qonun loyihasi bilan huquq-tartibot maskanlari inspektorlariga hamda patrul-post xizmati inspektorlari rahbarlariga ma'muriy bayonnomalarni ko'rib chiqish va choralarni qo'llash vakolati berilmoqda.

Ushbu qonun loyihasi mahallalarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda jamoat tartibini saqlash borasidagi ishlarning samaradorligini oshirish, vaqt va resurslarni tejashga, ovoragarchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Portativ lazerli nur tarqatkichlarning muomalasi tartibga solinadi

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan – "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi birinchi

sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish va undan jabrlanish holatlarini bartaraf etish maqsadlari nazarda tutilgan.

Hujjatda lazerli nur tarqatkichlar muomalasi qisman cheklanmoqda. Ya'ni tibbiyot va ijtimoiy sohada hozirda ishlatilib kelinayotgan va jamiyatga xavf tug'dirmayotgan mahsulotlarning foydalanilishiga ruxsat berilishi belgilanmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Soddalashtirilgan tartibda ijro etiladigan ishlar toifasi kengaytirilmoqda

Majlisda "Ijro ishini yuritishning soddalashtirilgan tartibi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 431-moddasiga o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ma'lumki, ijro ishini yuritishning soddalashtirilgan tartibida undiruvni qarzdorning mol-mulkiga (bundan pul mablag'lari mustasno) qaratmagan hamda qarzdorga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari qo'llanmagan holda amalga oshiriladi.

Mazkur qonun loyihasi bilan soddalashtirilgan tartibda ijro etiladigan ijro ishlari toifasi kengaytirilmoqda. Xususan, videokonferensaloqa xarajatlarini, kommunal xizmatlarga ko'p kvartirali uylar mulkdorlarining majburiy badallarini yoki to'lovlar bo'yicha qarzdorliklarni, shuningdek, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan ko'p bo'lmagan darajadagi ijro hujjatlarini soddalashtirilgan tartibda ijro etish nazarda tutilmoqda.

Ushbu qonun loyihasi undiruv samaradorligini oshirishga, murakkab bo'lmagan ijro hujjatlari bo'yicha qarzdorlarning yashash joyiga borib, ularni ortiqcha bezovta qilish holatlarining oldini olishga, shuningdek, qarzdorga nisbatan taqiq va cheklovlarini qo'llanmagan holda undiruvni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan bir qator savollar o'rtaga tashlandi. Jumladan, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Dilbar Mamajonova ushbu qonun loyihasi fraksiya yig'ilishida atroflicha muhokama qilinganini qayd etib, ayrim masalalarga e'tibor qaratdi. Xususan, bugungi kunda ko'p qavatli uy-joylar, kommunal xizmatlar bilan bog'liq muammolar aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'layotgani, ya'ni kommunal tashkilotlar

va boshqaruv-servis kompaniyalarining aholiga xizmat ko'rsatish sifati bugungi kunda juda pastligi aytiladi. Shuningdek, ijro hujjatlari bo'yicha undiruv nogironligi bor shaxslar, ehtiyojmand aholi qatlamlari ish haqi, stipendiyasi, pensiyasidan ushlab qolinadigan bo'lsa, ehtiyojmand aholi qatlamini qiynab qo'ymaymizmi, degan savolni o'rtaga tashladi.

Qizg'in savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Markaziy bank raisiga parlament so'rovi yuborildi

Majlisda "Bank tizimini isloh qilish hamda banklarni transformatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida" parlament so'rovi yuborish masalasi ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda bank sektorini tubdan transformatsiyalash maqsadida Prezidentimizning 2020-yil 12-maydagi Farmoniga asosan 2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi qabul qilingan va bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, tahlillar bank sektorida davlat ulushi yuqori darajada saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda. Shuningdek, xususiy banklar aktivlarining bank sektori aktivlari umumiy hajmidagi ulushi ham strategiyada 2025-yil uchun belgilangan maqsad ko'rsatkichlaridan pastligicha qolmoqda.

Parlament so'rovi muhokamasida deputatlar banklarni transformatsiya qilishdagi bunday holatlar tadbirkorlik subyektlari va aholining zamonaviy bank xizmatlariga bo'lgan talablarini qondirishga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlashdi.

Bugungi kunda yangi tashkil etilgan kredit tashkilotlarining asosiy qismi Toshkent shahri va viloyatlar markazlarida joylashganligi sababli qishloq hududlarida ularning xizmatlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan. Bu esa bank va moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, bunday xizmatlarning barcha aholi punktida ko'rsatilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishini talab etmoqda.

Shuningdek, aholidan kelib tushayotgan murojaatlar bank kartalari orqali fribgarliklarning oldini olishga qaratilgan choralar, xususan, bank tarmoqlarida zamonaviy himoya tizimlarini joriy etish va axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash borasida ham tezkor chora-tadbirlar ko'rish zarurligini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, banklar transformatsiyasi, tadbirkorlik subyektlari va aholining zamonaviy bank xizmatlariga bo'lgan talablarini qondirish, bank va moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish bo'yicha Markaziy bank raisi T. Ishmetovga ushbu masala yuzasidan Qonunchilik palatasining parlament so'rovini yuborish to'g'risida qaror qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Imtiyozli kredit ajratishda korrupsiyaviy holatlarni bartaraf etish belgilanmoqda

➡ Ushbu banklar hamda boshqa tijorat banklari tomonidan elektron platforma orqali aksariyat turdagi mikroqarz mablag'larini ajratish muddati 10 daqiqagacha qisqartirilgan. Bank kartalarini onlayn tarzda ochish, mijozlarni identifikatsiya qilishni biometrik ma'lumotlar asosida amalga oshirish hamda hujjatlarini avtomatik ravishda tekshirish yo'lga qo'yilgan. Ushbu banklar tomonidan hozirda jismoniy shaxslarga 12 turdagi va yuridik shaxslarga esa 14 turdagi moliyaviy xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Shu bilan birga, tijorat banklarida imtiyozli kredit ajratish va moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omilini cheklash, bu borada raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish bo'yicha ayrim muammolar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, tijorat banklarida amalda bo'lgan raqamli platformalarning yagona hamda tashqi axborot bazalari bilan integratsiyalashgan tizimi mavjud emas. Bu esa imtiyozli kreditlarga oid ma'lumotlar bazasini to'laqonli shakllantirish, taklif etilgan imtiyozli kreditlar uchun jismoniy va yuridik

shaxslar (talabgor)dan arizani elektron shaklda qabul qilish hamda mijoz (arizachi)ga oid ma'lumotlarni tegishli tashkilotlar (sud idoralari, soliq, ichki ishlar, majburiy ijro organlari, Kadastr agentligi, Savdo-sanoat palatasi va boshqalar)dan elektron tarzda olish hamda axborot almashinuvini yo'lga qo'yishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Muammoli kreditlar bilan bog'liq so'rovlarni hamda bank mijozlari bilan bankdan boshqa bankka o'tganda, uning avvalgi hisobvaraqlar aylanmasiga oid ma'lumotlarni real vaqt rejimida olish talab etilsa-da, bunday imkoniyat amaliyotda mavjud emas.

Yana bir e'tibor tortgan holat – tijorat banklarining elektron platformalari bilan bog'liq. Ushbu idoralararo axborot bazalari va "Kredit-axborot tahliliy markazi" kredit byurosining "KATM" axborot dasturida shakllangan kredit tarixi bilan integratsiya qilinmaganligi sababli lokal shaklda faoliyat ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan imtiyozli kredit turlari va shartlari

to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron tarzda tarqatish, talabgorning elektron arizasini uning kredit tarixi asosida ko'rib chiqishda inson omilini cheklash va ma'lumotlarni sun'iy intellektidan foydalangan holda tahlil qilish imkoniyatini cheklaydi.

Shu o'rinda bank tizimi faoliyatiga oid qonunchilikda tijorat banklari tomonidan moliyaviy xizmatlarni amalga oshirishda inson omilini cheklash hamda raqamlashtirishga oid majburiy qoida va talablar belgilanmaganligi ham qayd etish joiz. Bilamizki, bugungi kunda mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar hujjatlarini soxtalashtirish holatlariga jiddiy e'tibor qaratgandi. Ayniqsa, norasmiy to'lovlar talab etish, kredit olishda belgilangan tartibga zid ravishda sun'iy yengilliklar yaratish, qarorlar qabul qilishda shaffoflikning ta'minlanmaganligi sababli kreditlardan maqsadsiz foydalanish, o'zlashtirish va suiste'molchilik holatlari oqibatida tijorat banklarida katta miqdorda muammoli kreditlar yuzaga kelayotganiga tanqidiy baho berilgandi.

Bu masala shu yil 7-may kuni o'tkazilgan qo'mitamiz yig'ilishida atroflicha ko'rib chiqilgandi. Markaziy bank hamda tijorat banklarining aholi va tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-

quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratishda inson omilini cheklash va raqamlashtirishni jadallashtirish, kredit ajratish jarayonining shaffofligini oshirish hamda korrupsiya holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar natijadorligi to'g'risidagi axborotlari eshitilgandi.

Deputatlar ko'rib chiqilgan har bir masalaga mas'uliyat bilan yondashib, aholini o'ylantirayotgan masalalar, xususan, tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar hujjatlarini soxtalashtirish holatlariga jiddiy e'tibor qaratgandi. Ayniqsa, norasmiy to'lovlar talab etish, kredit olishda belgilangan tartibga zid ravishda sun'iy yengilliklar yaratish, qarorlar qabul qilishda shaffoflikning ta'minlanmaganligi sababli kreditlardan maqsadsiz foydalanish, o'zlashtirish va suiste'molchilik holatlari oqibatida tijorat banklarida katta miqdorda muammoli kreditlar yuzaga kelayotganiga tanqidiy baho berilgandi.

O'z navbatida, ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan qator takliflarimizni bildirdik. Imtiyozli kredit ajratishda inson omilini cheklash va qarorlar qabul qilishda ma'lumotlarni sun'iy intellektidan foydalangan holda tahlil etish, moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish orqali bank mijozlariga xavfsiz va tez amalga oshiriladigan "open banking" elektron moliyaviy xizmatlar turlarini kengaytirish, moliyaviy xizmatlarni taqdim qilishda tarmoqlararo o'zaro bog'liq moliyaviy texnologiyalar ektotizimini shakllantirish kabilar shular jumlasidan.

Prezidentimizning shu yil 21-apreldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida tijorat banklari tomonidan imtiyozli kredit ajratishda korrupsiyaviy omillarni bartaraf qilish, shu jumladan, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omilini cheklash, bu borada raqamlashtirish jarayonini

jadallashtirishga oid vazifalar belgilangan. Ulardan kelib chiqib, qo'mitamiz tomonidan bir qator takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, imtiyozli kreditlarga oid ma'lumotlar bazasini o'z ichiga olgan hamda barcha tijorat banklari uchun yagona elektron platforma joriy etish ko'zda tutiladi. Bunda platformani idoralararo axborot bazalari va "Kredit-axborot tahliliy markazi" kredit byurosining "KATM" axborot dasturida shakllangan kredit tarixi bilan integratsiya qilish, tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan imtiyozli kredit turlari va shartlari (kredit maqsadi, foizi, imtiyozli davri, muddati, ta'minoti) to'g'risidagi ma'lumotlarni platformada qayd qilish, tijorat banklari tomonidan taklif etilgan imtiyozli kreditlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar (talabgor)dan arizani elektron shaklda qabul qilish tizimini yo'lga qo'yish, talabgorning elektron arizasini uning kredit tarixi asosida ko'rib chiqish hamda kredit ajratish bo'yicha chiqarilgan qarorni platformaga joylashtirish

maqsadga muvofiq.

Tijorat banklariga nisbatan moliyaviy xizmatlarni amalga oshirishda inson omilini cheklash hamda raqamlashtirishga oid majburiy qoida va talablarni bank tizimi qonunchiligida belgilash ham ayni muddadidir.

Yuqorida keltirilgan takliflar qo'mita tomonidan Markaziy bankka taqdim etildi. Ushbu takliflarning mamlakatimiz bank tizimida amalga oshirilishi nafaqat mijozlar uchun qulaylik yaratishga, balki sohada korrupsiyaviy omillarni yo'qotishga ham xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, Prezidentimiz tomonidan bank tizimini isloh etishga qo'yilayotgan qat'iy talablarni ro'yogga chiqarish, ayniqsa, aholini barqaror daromad manbai bilan ta'minlash uchun imtiyozli kreditlarni ajratishda ochiqlik va shaffoflikni kafolatlaydi.

Husan YARQULOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi a'zosi.

